



XALQARO YOZGI MAKTAB– 2025
«TOSHKENT: MADANIYATLAR, TA'LIM VA
MA'RIFAT UYG'UNLIGI»
2025-yil 15-21-iyul kunlari



Toshkent-2025

«TOSHKENT: MADANIYATLAR, TA'LIM VA MA'RIFAT UYG'UNLIGI» Xalqaro yozgi maktab – 2025

Aziz do'stlar! Toshkent kimyo-texnologiya instituti sizlarni **2025-yil 15-iyun – 21-iyun kunlari** Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan “Toshkent: madaniyat, ta'lim va ma'rifat uyg'unligi” xalqaro yozgi maktabida ishtirok etishga taklif etadi!

Manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., A.Navoiy ko'chasi, 32.

Toshkent kimyo-texnologiya instituti haqida

Toshkent kimyo-texnologiya instituti (TKTI, <http://tkti.uz>) - kimyoviy texnologiya (organik va noorganik moddalar, polimerlar, silikat va qiyin eruvchan materiallar, nodir va kamyob metallar kimyoviy texnologiyasi), oziq-ovqat texnologiyasi, neft va gazni qayta ishlash, ekologiya, biotexnologiya, enologiya, sellyuloza va yog'ochga ishlov berish texnologiyasi va b. yo'nalishlar bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan Markaziy Osiyodagi yetakchi oliygohlardan biri hisoblanadi.

TKTI 1991-yil 6-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tashkil etilgan. TKTI respublikada oliy texnik ta'lim darajasini oshirish, muhandislik va ilmiy kadrlar tayyorlashni takomillashtirish maqsadida 1929 yildan beri faoliyat yuritayotgan sobiq Toshkent politexnika institutining bir necha fakultetlari negizida tashkil etilgan. Institut o'z faoliyati davomida mamlakatimiz kimyo, neft-gaz, oziq-ovqat, qurilish sanoati va iqtisodiyotining boshqa tarmoqlari uchun 10 mingdan ortiq yuqori malakali muhandis-texnologlar tayyorladi.

TKTI to'rt yillik bakalavriat dasturini, ikki yillik magistratura dasturini va doktorantura dasturini (PhD va DSc) taqdim etish bo'yicha akkreditatsiyadan o'tgan. Institut huzurida Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash mintaqaviy markazi faoliyat yuritadi. Institutda 29 ta bakalavriat, 30 ta magistratura mutaxassisliklari, 16 ta doktorantura, 5 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ikki tomonlama diplom bilan mutaxassislar tayyorlanadi; Ikkita diplomli 7 ta magistratura, 1 ta ikki tomonlama diplomli doktorantura (“Kotjutel dasturi”). Bugungi kunda institutda kunduzgi va sirtqi bo'limlarda 7800 nafar bakalavriat, 445 nafar magistratura, 139 nafar doktorant tahsil olmoqda.

Yevropa, AQSH, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Koreya, Meksika, Qozog'iston, Belarus va boshqa davlatlarning universitetlaridan taklif etilgan xorijlik professor-o'qituvchilar bilan seminarlar, treninglar, ma'ruzalar muntazam tashkil etilmoqda. Bundan tashqari, Toshkent kimyo-texnologiya institutida ilmiy darajalar berish bo'yicha ikkita ixtisoslashtirilgan ilmiy kengash: Asfalt-beton texnologiyasini modernizatsiya qilish bo'yicha O'zbekiston-Xitoy qo'shma ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi, Nanotexnologiyalar va nanomateriallar laboratoriyasi va Zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil laboratoriyasi faoliyat ko'rsatmoqda.



«Toshkent: madaniyat, ta'lim va ma'rifat uyg'unligi»

1-kun (15-iyul, yakshanba):

- Toshkentga yetib kelish
- Ishtirokchilarni kutib olish va Toshkent kimyo-texnologiya instituti yotoqxonasiga joylashtirish

5-kun (19-iyul, payshanba):

- Hazrati Imom Majmuasiga tashrif.
- Toshkent planetariysiga tashrif
- Sayohatdan olingan taassurotlarni muhokama qilish: "Tarix zamonaviy ta'limga qanday ta'sir qiladi?"
- Madaniy almashinuv kechasi: ishtirokchilar o'z mamlakatlari madaniyati va urf-odatlarini taqdim etadilar

2-kun (16-iyul, dushanba):

- Ishtirokchilarni ro'yxatga olish, tashkilotchilar tomonidan tabrik so'zi
- Yozgi maktabning rasmiy ochilishi va kirish ma'ruzasi
- Ma'ruza: "Toshkent tarixi: qadimdan to hozirgi kungacha"
- Madaniy dastur: Tashkent city Magic cityga ekskursiya
- Madaniy muloqot kechasi

6 -kun (20- iyul, juma):

- Kelgusi hamkorlik istiqbollarini muhokama qilish
- O'zbek san'ati va musiqa madaniyati bo'yicha ijodiy master-klass
- Maktabni tantanali yopilish va sertifikatlar topshirish marosimi
- Xayrshuv kechki ovqati (ishtirokchilarning hohishiga ko'ra)

3-kun (17-iyul, seshanba):

- Toshkent kimyo-texnologiya instituti bilan tanishtirish. Institutning yetakchi olimlari bilan tanishtirish.
- Munozara: "Ta'limning zamonaviy bosqichida madaniyatlararo muloqotning o'rni"
- Toshkentning tarixiy diqqatga sazovor joylariga ekskursiya. Temuriylar tarixi davlat muzeyiga tashrif
- O'zbek pazandachiligi bo'yicha master-klass
- Madaniy muloqot kechasi

7-kun (21-iyul, shanba):

- Yozgi maktab ishtirokchilarini kuzatish



4 - kun(18 iyul, chorshanba):

- akademik F.N.Rusakov nomli Toshkent Botanika bog'iga tashrif
- Ma'ruza: "O'zbekiston – Markaziy Osiyo madaniyatlari va tamadduni beshigi"
- Jamoaviy faoliyat: madaniy hamkorlik bo'yicha innovatsion tashabbuslarni rivojlantirish

